



MAKTAB TABIIY GEOGRAFIYA TALIMIDA EKOLOGIK-TABIATNI MUHOFAZA QILISH KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH

Eshonqulova Sevinch

JDPU Geografiya magistr

Annotatsiya: Mazkur maqola maktablarda tabiiy geografik bilimni oshirish hamda atrof muhitni ekologik himoya qilish va tabiiy ne'matlarni qadrlash va muhofaza qilishni tahlil qiladi. O'zbekiston ekologik holati hozirgi kunda yomonlashib borayotgani sababli maktablarda o'quvchilarni ekologik bilimlar bilan o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kalit so'zlar: Tabiat, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologiy ta'lim-tarbiya, atrof-muhit.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston va butun yer yuzida ekologik ahvolni yomonlashib borayotgani va bunday ekologik vaziyat shunday davom etsa ahvol bundanda yomonlashib boraveradi. Buning uchun esa har bir insoj o'zi yashab turgan joyni va yer hammamizning umumiy uyumiz shiori ostida atrof- muhitni muhofaza qilishimiz zarur.

Hozirgi kunda har bir inson sog'lom atrof-muhitga ega bo'lishi, musafgo osmonga, toza ichimlik suviga, hamda musaffo havodan nafas olishga, ekologik toza oziq ovqat iste'mol qilishi va shu bilan birga kelajak avlodga yaxshi ekologik atrof- muhitni qoldirib ketish va ularning ham bu yerda haqlari borlegi va ular ham huddi biz kabi toza ichimlik suvi, musaffo havodan nafas olish, va boshqalarni kelajak avlodga ham berishimiz kerak.

Bugungi globallashuv jarayonida atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining esa kundan kunga yomonlashib borayotganini kurmoqdamiz. Yaqqol misol tariqasida hozirda yurtimizda kuzatilayotgan atmosferadagi zararli changlar va qurulish sabab chiqadigan changlar, sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar va shu bilan birga insonlarning uzlari oxirgi kunlarda tabiatga juda yomon tasir kursatmoqda.

Hozirda atrof- muhitni ekologik holatini yaxshilash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida' 2018-yil 3- oktabrdagi PQ 3956- son qarori ijrosini taminlash maqsadida Vazirlar mahkamasi qaror qildi.

ADABYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda maktablarda o'quvchilarni ona tabiatga yanada mehrli va tabiatni asrashga o'rgatish va ularda turli ko'nikmalar shakllantirish lozim. Shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishda turli texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish zarur yani bunda atrofga tashiladigan chiqindilarni qayta ishlashni yanada takomillashtirish va bunday g'oya va takliflar, yangiliklar qilishga o'quvchilarni qiziqtirish va undash zarur.

Atrof-muhitning hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi, insonning tabiatga ta'siri umumsayyoraviy masshtabga yetgan XX asr o'rtalaridan boshlangan. Bu bosqichning



asosiy vazifasi ekologik sistemalarni muhofaza qilish, ularning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini ta'minlash va biosferadagi muvozanatni saqlashdir. Bunda tabiatdan oqilona foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kishilik jamiyati va tabiat bir butundir. Jamiyat rivojlangan sari insonning tabiatga ta'siri ortib boradi. Tabiiy omillar bilan antropogen omillar o'zaro uyg'unlashib tabiiy landshaftlarning o'rniga antropogen landshaftlar vujudga keladi. O'zgartirilgan tabiiy muhit, landshaftlarga inson aralashib turmasa, ular o'z tabiiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi.

Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga qator misollar keltirish mumkin.

Tabiatning bir butunligi tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish zaruriyatini tug'diradi. Chunki tabiat unsurlari (iqlim, yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar) tabiatning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Tabiiy resurslarning har biri kompleks foydalanishni talab etadi. Masalan: daryodan elektr energiyasi manbai, turli baliq, qushlari va boshqa hayvonlarning makoni, qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish manbai, transport vositasi, chuchuk suv manbai, rekreatsiya - turizm obyekti va boshqa sohalarda foydalanish mumkin.

Ekologik ta'lim o'sib kelayotgan yosh avlodni umuman yer yuzi aholisini barqaror rivojlanishiga o'tishda eng muhim shart-sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ekologik ta'limning mazmunini quyidagilar tashkil etishi mumkin:

1. Dunyoni hozirgi ekologik xolat asosida unga munosabat bildirish;
2. Tabiatda barcha jonsiz va jonli tarkibini birlikda ekanligini fikrlay olish;
3. Atrof-muhitga munosabat va o'zini anglab etish. Tabiatni tarkibiy qismi ekanligini tushunish;
4. Tabiatga nisbatan qadriyatlarni hurmat qilish;
5. Tirik organizmlarni har xil darajada o'rganish va izchillik metodini qo'llash;
6. Tirik organizmlar tizimi bir butunligini va o'zaro ekologik bog'lanishlarda ekanligi (moddalar aylanishi, energiya va axborot almashinuvlari).
7. Tabiiy jarayonlar va hodisalarning antropotsentrikdan biotsentrikga hamda politsentrik usulni qo'llash;
8. Tabiat va jamiyatdagi o'zaro birlik va qarama-qarshiliklarni anglash;
9. Ekologik tanglik, madaniyatning tangligi ekanligini anglash;
10. Ekologik madaniyat insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi ekanligini anglash;
11. O'z faoliyatida ekologik va axloqiy normalarni to'g'ri keldigan usullarini anglash;
12. O'zi va boshqalar sog'lig'i uchun, atrof-muhit xolatiga nisbatan ekologik javobgarlikni tarbiyalash;
13. Insoniyatning barqaror rivojlanish kontseptsiyasini, tabiat bilan jamiyatning koevolyutsiyasi ekanligini tushunib etish;
14. Tabiat bilan jamiyatni uyg'unlashtirish, ijtimoiy zaruriy muammo ekanligini tushunish.



Ekologik tarbiya ham tarbiyaning, asosiy qismi bo'lib, bolaning ahloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir qiladi va ota-onalarni ularni murg'aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi.

Ekologik ta'lim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayondir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bu kabi harakatlar tabiatni asrash, ekotizimning mavjudligini saqlab qolish yo lidagi urinishlarning bir qismidir.

Uning eng katta qismi esa butun insoniyat e'tiborini ushbu muammoga qaratish, ularni birgalikda, o'zaro hamjihatlikda tabiatni muhofaza qilishga undashdir. Bularning barini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish kutilgan natijalarni beradi.

Shuni hisobga olib, ekologik ta'lim-tarbiyani, asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur.

Boshlang'ich ta'lim tabiatshunoslik darslarida vatanparvar va ekologik tarbiya berishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish kerak.

REFERENCES:

1. A.A.Nazarov "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" o'quv qo'llanma, Toshkent-2020.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/umumta-lim-maktabi-o-quvchilari-ekologik-madaniyatini-shakllantirishninig-mazmun-mohiyati>.
3. <https://lib.bimm.uz/items/download/11222>